

TALABALARDA ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI VOSITASIDA IQTISODIY KO'NIKMALARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

Kadirova Maraljan Matyakubovna,

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), "Yashil iqtisodiyot va agrobiznes" kafedrasini o'qituvchisi. Buxoro davlat universiteti

Annotasiya. Ushbu maqolada oliv ta'limga muassasalarini talabalarining iqtisodiy ko'nikmalarini rivojlantirishda zamonaviy ta'limga texnologiyalaridan foydalanib dars mashg'ulotlarini tashkil etish zarurati yoritilgan. Bunda professor-o'qituvchi tomonidan har bir mavzu xususiyatidan kelib chiqib bu texnologiyalarni to'g'ri tanlay olish va samarali foydalanish ko'nikma, malakalariga ega bo'lishi muhim ekanligi takidlangan. Bozor iqtisodiyoti sharoitida mutaxassisning mehnat va xizmatlar bozorida raqobatbardoshligini oshirish uning iqtisodiy ko'nikmalarining shakllanishi bilan uzviy bog'liq ekanligi va shuningdek iqtisodiy ko'nikma tushunchasining mazmun va mohiyati keng izohlab berilgan.

Kalit so'zlar: iqtisodiy ko'nikma, SWOT tahlil, Assesment, Veb-kvest loyiha, BBB, Insert, Konseptual jadval, Nima uchun, Aqliy hujum, Klaster, SCORE.

ПУТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ЭКОНОМИЧЕСКИХ НАВЫКОВ СТУДЕНТОВ С ПОМОЩЬЮ СОВРЕМЕННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

Кадырова Мараджан Матякубовна,

Доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, преподаватель кафедры «Зеленая экономика и АПК». Бухарский государственный университет.

Аннотация. В данной статье освещается необходимость организации занятий с использованием современных образовательных технологий в развитии экономических навыков студентов высших учебных заведений. Отмечено, что для педагога важно уметь правильно выбирать эти технологии и иметь навыки и умения для их эффективного использования исходя из особенностей каждого предмета. В условиях рыночной экономики повышение конкурентоспособности специалиста на рынке труда и услуг неразрывно связано с формированием его экономических навыков. В связи с этим, широко разъяснено значение и сущность понятия экономических навыков.

Ключевые слова: экономические навыки, SWOT-анализ, Ассесмент, Проект веб-квеста, BBB, Вставка, Таблица концепций, Почему, Мозговой штурм, Кластер, SCORE.

ENHANCING STUDENTS' ECONOMIC SKILLS THROUGH MODERN EDUCATIONAL TECHNOLOGIES

Kadyrova Maralzhan Matyakubovna,

Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy, Lecturer at the Department of Green Economy and Agribusiness. Bukhara State University.

Abstract. This article highlights the need to organize classes using modern educational technologies in the development of economic skills of students of higher educational institutions. It was emphasized by the teacher that it is important to be able to choose these technologies correctly and to have the skills and abilities to use them effectively based on the characteristics of each subject. In the conditions of the market economy, increasing the competitiveness of the specialist in the labor and services market is inextricably linked with the formation of his economic skills, and also the meaning and essence of the concept of economic skills has been widely explained.

Keywords: economic skills, SWOT analysis, Assessment, Web-quest project, BBB, Insert, Concept table, Why, Brainstorming, Cluster, SCORE.

Bugungi kunda mamlakatimizdagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, mulkning huquqiy tan olinishi jamiyatdagi bozor munosabatlarining faollashishiga yordam berdi. Bu talabalarning ijtimoiy hayotida, ongida va xulq-atvorida, ayniqsa, ularning dunyoqarashi va mehnatga bo'lgan munosabatida ko'pgina muammolarni keltirib chiqarmoqda. Bular:

- iqtisodiy savodxonlikning yetarli darajada emasligi;
- talabalarning oqilona iqtisodiy xulq-atvori va bu boradagi asosli qarorlar chiqara olishga tayyor emasligida namoyon bo'lmoqda.

Bu kamchiliklarni bartaraf etish oliv ta'limga muassasasida tahsil olayotgan bo'lg'usi zamonaviy

Educaion and innovative research 2023 y. № 10

mutaxassislarning iqtisodiy ko‘nikmalarini rivojlantirishning yangicha yondashuvlarini ishlab chiqish talabini yuzaga keltiradi. Bo‘lg‘usi mutaxassisda iqtisodiy ko‘nikmalarni rivojlantirishning yangicha yondashuvlaridan biri bu – iqtisodiyot fanlarini o‘qitish samaradorligini oshirishda zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish mexanizmlarini takomillashtirishdan iboratdir [1].

Chunki, zamonaviy ta’lim texnologiyalari talabalarda iqtisodiy ko‘nikmalarni rivojlantirishdagi muammolarni oqilona hal qilishda muhim sanaladi. Zamonaviy ta’lim texnologiyalari nafaqat talabalar tomonidan amaliy ko‘nikmalarni egallahsga, balki umumiy auditoriya uchun materialni taqdim etishning tushunarlligi va ochiqligiga qaratilgan bo‘lib, bu nazariy materiallarni talabalarga yetkazishda samarador hisoblanadi. Shuning uchun ham talabalarda iqtisodiy ko‘nikmalarni rivojlantirishda zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish bugungi olyi ta’lim muassasalarining ta’lim va tarbiya jarayonida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019- yil 8- oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi olyi ta’lim tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847 sonli Farmonida “Mamlakatni modernizatsiya qilish, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan barqaror rivojlantirish uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, inson kapitalini mehnat bozori talablari asosida rivojlantirish; ilg‘or xorijiy tajribalar asosida olyi ta’lim muassasalariga yuqori malakali pedagog kadrlarni maqsadli tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini takomillashtirib borish; gumanitar va pedagogik yo‘nalishlarda kadrlar tayyorlash sifatiga e’tiborni kuchaytirish, pedagogik ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari bo‘yicha o‘quv reja va dasturlarini ilg‘or xorijiy tajriba asosida qayta ko‘rib chiqish va takomillashtirish, mazkur yo‘nalishda tahsil olayotgan talabalarda ta’lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirish, pedagogik ta’lim infratuzilmasini yaxshilash” kabi ustuvor vazifalar belgilab qo‘yilgan.

Shu sababli olyi ta’lim muassalari talabalarida iqtisodiy ko‘nikmalarni rivojlantirishda zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanishning shakl, usul va vositalarini takomillashtirishni taqozo etadi. Bularga erishish bo‘lg‘usi mutaxassislarning kasbiy faoliyatida uchraydigan turli muammoli vaziyatlarni hal qilish, mustaqil, ijodiy faoliyatini samarali amalga oshirishga, ko‘nikma va malakalarni puxta egallahsiga yordam beradi.

Shuning uchun ham talabalarning iqtisodiy ko‘nikmalarini rivojlantirishda zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanishning yangicha yondashuvlarini ishlab chiqish va olyi ta’lim muassasalari ta’lim jarayoniga joriy etish bugungi ta’lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Bu borada tadqiqotlarni amalga oshirgan olimlar: L.N. Falevich [2], O.G. Nazarova [3], L.N. Anaskaya [4], T.V. Kreps [5] larning ta’kidlashicha, talabalarda iqtisodiy ko‘nikmalarini rivojlantirishda quyidagilarga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq:

- iqtisodiyotga oid mashg‘ulotlarni zamonaviy ta’lim texnologiyalari yordamida tashkil etishni loyihalashtirish;
- talabalarning iqtisodiyot fanlariga oid o‘quv va bilish faoliyatining tuzilishi hamda mazmunini aniqlash;
- diagnostik maqsadni belgilash va ta’lim sifatini (maqsadga erishish) va talaba shaxsining rivojlanishini ob’yektiv nazorat qilish;
- tarkibiy va mazmuniy yaxlitlik tamoyiliga amal qilish. Uning mohiyati pedagogik tizimning barcha tarkibiy qismlarining ham gorizontal, ham o‘zaro uyg‘un ta’siriga erishishdir.

Shuningdek, A.F. Kazakova [6], G.M. Morozova [7], Y.Y. Belyanina [8] kabi olimlar o‘z tadqiqotlarida bo‘lg‘usi mutaxassislarda iqtisodiy malakalarni shakllantirishda zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanishda quyidagilarga e’tibor qaratish lozim ekanligini ta’kidlashgan:

Bo‘lg‘usi mutaxassislarni tayyorlashda o‘quv mashg‘ulotlarni zamonaviy ta’lim texnologiyalari yordamida tashkil etish uchun:

- mashg‘ulot ishlanmalarini ishlab chiqishda axborot texnologiyalari vositalarini qo‘llash;
- ishlab chiqiladigan o‘quv mashg‘uloti loyihalari talabalarda muammoli vaziyatlar hosil qilish va mustaqil ravishda muammolarni yechishga qaratilgan bo‘lishi;
- iqtisodiyot fanlarini o‘qitishda mustaqil ta’lim o‘rni va ahamiyatini oshirish.

Yuqoridagilardan ko‘rinadiki, zamonaviy ta’lim sharoitida o‘quv mashg‘ulotlarini samarali tashkil etish har bir professor-o‘qituvchidan alohida tayyorgarlikni talab etadi. Ayniqsa, zamonaviy ta’lim texnologiyalari va axborot kommunikatsiya texnologiyalari bo‘yicha yetarli tayyorgarlikka ega bo‘lish talab etiladi. Chunki, ta’lim jarayonini didaktik ta’minlashning muhim shartlaridan biri bu – talabalarga har bir mavzu bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotlarini noan’anaviy usullar yordamida tashkil etish. Aks holda, o‘qituvchi hozirgi shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim sharoitida ko‘zlangan maqsadga

erisha olmaydi.

Shuning uchun ham har bir professor-o'qituvchi:

- zamonaviy pedagogik texnologiyalar borasida yetarli tayyorgarlikka ega bo'lishi;
- har bir o'rganilish kerak bo'lgan mavzular bo'yicha ta'limga maqsadlarini aniqlay olishi va bu maqsadlarga erishishni oldindan kafolatlanishini ta'minlashi;
- zamonaviy ta'limga usullari ("Ochiq bahs" darsi, "Konferensiya" darsi, kichik guruhlarda ishlash, "Aqliy hujum", ishbilarmonlik o'yinlari, "Klaster", rolli o'yinlar, muammoli, loyihamiy ta'limga metodlari, "Skarabey", "Insert", "Munozara", "Zinama-zina" kabi o'qitish usullari va h.k.) ni to'g'ri tanlay olish ko'nikma va malakalariga ega bo'lishi;
- har bir o'quv mashg'ulotini oldindan loyihalash malakalariga ega bo'lishi;
- har bir o'quv mashg'uloti senariysini oldindan ishlab chiqish malakalariga ega bo'lishi;
- zamonaviy ta'limga vositalarining ishlash prinsiplarini bilishi va ularni o'quv mashg'ulotlarini tashkil etishda to'g'ri tanlay olish va samarali foydalanish ko'nikma, malakalariga ega bo'lishi talab etiladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy malakalar raqobatbardoshlikni oshirish va mehnat va xizmatlar bozori talablariga javob beruvchi mutaxassislarini tayyorlash jarayoni bilan uzviy bog'liq bo'ladi.

Shuning uchun ham, raqobatbardosh mutaxassisni kasbiy faoliyatga samarali tayyorlashda talabalar "iqtisodiy ko'nikma" tushunchasining mohiyati nimadan iborat ekanligini anglagan holda tushunib yetishi muhim hisoblanadi. Chunki zamonaviy mutaxassis iqtisodiy ko'nikmalarni egallamasdan turib, bozor iqtisodiy tizimida muhim hisoblangan vaziyatlarni o'z vaqtida tahlil qila olish va samarali qarorlar qabul qila olish kabi qobiliyatlarini rivojlantira olmaydi.

Mamlakatimizda ta'limga tizimini modernizatsiya qilish turli ta'limga sohalari (maktabgacha, umumiyo'rta, oliy va oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limga) mutaxassislarining kasbiy malakasini shakllantirish masalalarini ilgari surmoqda.

Zamonaviy ta'limga asosiy maqsadi:

- uni davlatning dolzarb va istiqbolli ehtiyojlariga muvofiqligi;
- ijtimoiy moslashuvchanligi;
- mehnat faoliyatiga, o'z-o'zini tarbiyalashga va o'z-o'zini takomillashtirishga qodir bo'lgan yetuk mutaxassisni tayyorlashdir.

Belgilangan maqsadga erishishni oldindan kafolatlash har bir bo'lg'usi mutaxassisning o'z faoliyati natijalarini bashorat qilishga va kasbiy faoliyati jarayonini modellashtirishga qodir bo'lishidir.

Ma'lumki har bir oliy ta'limga muassasasidagi ta'limga sifati u tayyorlayotgan mutaxassislarining kasbiy malakalarining shakllanganlik darajasi bilan o'chanadi va bu o'z navbatida har bir ta'limga yo'naliishing pedagogik maqsadi hisoblanadi.

Pedagogik olimlar S.A. Boroday [9], Y.E. Ovakimyan [10], Y.V. Puziyenko [11]larning tadqiqot ishlari tahlili shuni ko'rsatadiki, "iqtisodiy bilimlar" tushunchasiga "kasbiy ko'nikma" tushunchasi asos bo'lib xizmat qiladi. Ularning fikriga ko'ra alohida bir shaxsning qobiliyatlarini va qobiliyatlarida namoyon bo'ladigan ko'nikmalar yig'indisi uning kasbiy ko'nikmasini belgilaydi. Ko'nikmani namoyish etishda esa bir xil inson turli sharoitlarda faoliyat yuritgan holda o'zini kasbiy jihatdan yetarli namoyon etishi mumkin yoki o'z vazifasini samarali bajargan holda o'z malakasini umuman ko'rsatmasligi mumkin. Bunday holatda bu ko'nikma emas, balki bu shaxsning faqat o'ziga xos bo'lgan yashirin imkoniyatidir.

Yuqoridagilardan ko'rinadiki, iqtisodiy ko'nikma mutaxassisning o'z sohasi bo'yicha egallagan bilimlari va tajribasiga tayangan holda bozor munosabatlari sharoitida oqilona iqtisodiy qarorlar qabul qilish va turli sharoitlarda samarali kasbiy faoliyat yuritishga tayyorligidir. Shuningdek, ma'lum bir mutaxassisning iqtisodiy jihatlari, jarayonlari, hodisalarini tushunish qobiliyatlarini ham iqtisodiy ko'nikmani ifodalaydi.

Ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatadiki, bo'lg'usi mutaxassisning iqtisodiy ko'nikmalari ma'lum bir tizimdan iborat bo'lib, uni quyidagi uchta guruhgaga ajratib o'rganish mumkin:


Asosiy iqtisodiy ko'nikmalar.

Funksional iqtisodiy ko'nikmalar.

Amaliy iqtisodiy ko'nikmalar.

Adabiyotlar tahlili, ilg'or tajribalarni o'rganish shuni ko'rsatadiki, bozor iqtisodiyoti sharoitida mutaxassisning mehnat va xizmatlar bozorida raqobatbardoshligini oshirish uning iqtisodiy ko'nikmalarining shakllanishi bilan uzviy bog'liq ekan. Talabalarda iqtisodiy ko'nikmalari rivojlantirishning muhim jihatlari quyidagi 1.1 rasmda keltirilgan.

Iqtisodiy ko‘nikmaning muhim jihatlari:



1.1 rasm. Talabalarda iqtisodiy ko‘nikmalar rivojlantirishning muhim jihatlari.

Iqtisodiy ko‘nikmalar bo‘lg‘usi mutaxassisning kasbiy mahoratini ham o‘z ichiga oladi, ya’ni:

- asosiy iqtisodiy masalalarni tushunish;
- iqtisodiy vaziyatni umumiy tahlil qilish;
- voqeа-hodisalarga baho bera olish;

- xo‘jalik yurituvchi subyektning iqtisodiy holatini hisobga olgan holda maqbul qarorlar qabul qila olish va h.k.

Iqtisodiy ko‘nikmalar muhim xususiyatlarga ega bo‘lib, ular quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- ilmiy va nazariy bilimlar, ya’ni zamonaviy mutaxassis uchun zarur bo‘lgan mazkur sohadagi bilimlar;

- iqtisodiyotga doir va kasbiy iqtisodiy ko‘nikmalar;
- kasbiy va hayotiy tajriba;
- barqaror moddiy va ma’naviy ehtiyojning mavjudligi;
- iqtisodiy jihatdan yetarli ko‘nikmaga ega bo‘lish va h.k. [12]

Izlanishlarimiz natijalari shuni ko‘rsatadiki, haqiqatan ham, har bir mutaxassis o‘zi faoliyat yuritadigan mutaxassislik bo‘yicha qanchalik ko‘p iqtisodiy ko‘nikmalarga ega bo‘lsa, u shunchalik yuqori darajada kasbiy faoliyat yurita oladi.

Shuningdek, oliy ta’lim muassasalarida bo‘lg‘usi mutaxassislarda iqtisodiy ko‘nikmalar oliy ta’lim muassasalarining barcha ta’lim yo‘nalishlari uchun ishlab chiqiladigan ta’lim dasturlarining ajralmas qismi bo‘lishi kerak.

Yuqoridagilarga asoslangan holda iqtisodiy ko‘nikmalarni quyidagicha ta’riflash maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz: ta’lim yo‘nalishidan qat’i nazar, kasbiy iqtisodiy ko‘nikmalarni egallash barcha bo‘lg‘usi mutaxassislar uchun majburiydir.

Yuqoridagilardan ko‘rinadiki, talabalarning iqtisodiy ko‘nikmalarini rivojlantirishdan asosiy maqsad – bo‘lg‘usi mutaxassisning mehnat va xizmatlar bozoridaq raqobatbardoshligini oshirish, unda iqtisodiy faoliyatda o‘zini to‘liq namoyon etish imkoniyatini yaratishdan iborat. Buni amalga oshirish jarayoni murakkab hisoblanib, ularni amaldagi an‘anaviy ta’lim tizimi asosida amalga oshirish ko‘zlangan maqsadga erishishda katta qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Shuning uchun ham mavjud an‘anaviy ta’lim tizimi radikal o‘zgarishlarni talab qiladi. Ya’ni, kognitiv faoliyat tizimi va mazmuni, usullari, vositalari, tashkiliy shakllari va o‘quv muhitining pedagogik sharoitlarida o‘quvchi shaxsining psixologik xususiyatlarini hisobga olish lozim. [13]

Soha olimlarining tadqiqot ishlari, adabiyotlar tahlili va ilmiy izlanishlar natijasi shuni

ko'rsatadiki, oliy ta'lim muassasalarida talabalarning iqtisodiy ko'nikmalarini rivojlantirish modelini muvaffaqiyatli amalga oshirishga yordam beradigan pedagogik shart-sharoitlar majmuasini yaratish zarur. Bunda quyidagi omillarni hisobga olish maqsadga muvofiq:

- oliy ta'limda jamiyatning ijtimoiy tartibi, ta'limi mazmunidagi an'analar;
- oliy ta'lim, me'yoriy, biznesga yo'naltirilgan va konseptual yondashuvlarni sintez qilishning yetakchi g'oyalari, bo'lajak iqtisodchilarning ko'nikmalarini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari;
- eksperimental va qidiruv ishlarini aniqlash bosqichlari natijalari.

Keltirilgan tavsiyalar asosida zamonaviy ta'lim texnologiyalari yordamida tashkil etilgan mashg'ulotlar va talabalarning iqtisodiyotga oid ko'nikmalarini rivojlantirishning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat: maqsadga muvofiqlik; tarkibiy qismlarning mavjudligi; ular o'rtasidagi muayyan aloqalar va munosabatlar; tashqi muhit bilan aloqasi va o'zaro ta'siri; tizimning yaxlit birlik sifatida ishlashi; iearxiya va tartiblilik.

Talabalarda o'tkazilgan tadqiqot natijalari iqtisodiyot fanini o'zlashtirganlik darajasining umumiylar tarzda rivojlanganligini tasdiqlaydi. Ammo mazkur fanga oid ilmiy va nazariy bilimlar bilan mustahkamlanmagan bo'lib, ko'proq bu fanning kundalik hayotda zaruratini his qilgan holda o'zlashtirganlik iqtisodiy qonun va kategoriyalarni bilish dorasida shakllanganligidir. Iqtisodiy ko'nikmalarni rivojlantirish zarurligini barcha respondentlar ular bilim darajalariga qaramasdan qayd etishga harakat qilgan. Oliy ta'lim muassasalarida iqtisodiyot faniga oid bilimlarni yuzaki anglash hollari mavjud, ammo uni talab etilgan darajada mutaxassis sifatida anglash shakllanganmagan. Tadqiqot davomida "Iqtisodiyot" faniga oid bilimlarni egallash bo'yicha ma'lum tadbirlardan oldingi va keyingi holat o'r ganilgan bo'lib, ularda berilgan bilim va o'tkazilgan tadbirlardan so'ng talabalarning bilim darajalari hamda iqtisodiy ko'nikmalari keskin oshganligi namoyon bo'ldi.

Shunday qilib, yuqorida keltirilgan nazariy ma'lumotlarning tahliliga ko'ra, talabalarning iqtisodiy ko'nikmalarini rivojlantirishda zamonaviy ta'lim texnologiyalarini to'g'ri tanlash va ulardan foydalanishning yangicha mexanizmlarini ishlab chiqish lozimligi aniqlandi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, boshqa fanlar bilan bir qatorda iqtisodiyot fanlarini o'qitishni zamonaviy ta'lim texnologiyalardan foydalangan holda tashkil etish talabalarning fanga doir bilimlarni puxta o'zlashtirish imkoniyatlarini oshiradi. Tadqiqot maqsadidan kelib chiqqan holda talabalarning iqtisodiyotga oid bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash maqsadida dastlab kuzatish ishlari olib borildi.

Olib borilgan tadqiqot ishlariga oid ilmiy-metodik adabiyotlar tahlili va bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida iqtisodiyot fanlarini o'qitishning mavjud holatiga ko'ra talabalarning iqtisodiy ko'nikmalarni rivojlantirishda quyidagi turkum muammolar borligi ma'lum bo'ldi:

- oliy ta'lim muassasalarida iqtisodiyot fanlari bo'yicha o'quv mashg'ulotlarini tashkil etishda samarali natija beradigan zamonaviy ta'lim texnologiyalarini to'g'ri tanlash va ularni amalda qo'llash;
- talabalarning iqtisodiyot fanlari bo'yicha mustaqil ta'limini tashkil etish tizimini takomillashtirish;
- talabalarning iqtisodiy ko'nikmalarni rivojlantirish modelini ishlab chiqish;
- oliy ta'lim muassasalarida iqtisodiyot fanlarini zamonaviy ta'lim texnologiyalari, ya'ni «SWOT tahlil», «Assesment», «Web-kvest loyiha», «BBB», «Insert», «Konseptual jadval», «Nima uchun», «Aqliy hujum», «Klaster», «SCORE» kabi ta'lim texnologiyalarini yordamida tashkil etish metodikasini ishlab chiqish va uni tajriba-sinovdan o'tkazish orqali ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarga faol joriy etish.

Bu muammolarni hal qilishda quyidagi tamoyillarga tayanish maqsadga muvofiq:

1. Ilmiy xarakterlilik tamoyili. Ushbu tamoyil jamiyatning iqtisodiy tizimini tashkil etish to'g'risida yetarli darajada ishonchli ta'lim ma'lumotlarini olishni nazarda tutadi.

2. Bashoratchilik tamoyili. Ushbu tamoyil talabalarda iqtisodiy ta'sir va o'zgarishlarni oldindan ko'ra bilish, iqtisodiy siyosatni ishlab chiqishning mumkin bo'lgan yo'llarini bashorat qilish qobiliyatini shakllantirish muammosini hal etish imkoniyatini yaratadi.

3. Iqtisodiy fanlarni boshqa fanlar bilan integratsiyalashuvi tamoyili. Ushbu tamoyil iqtisodiy fanlar bilan boshqa fanlarni o'zaro integratsiyalash asosida o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish orqali talabalar kasbiy faoliyatining nazariy va amaliy tarkibiy qismlarining uzvyligini ta'minlaydi.

4. Insonparvarlik tamoyili. Ushbu tamoyil talabalarning kasbiy faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish huquqidан kelib chiqadi, shuningdek, u iqtisodiy jihatdan foydali faoliyatga qodir shaxsni shakllantirish g'oyasini qo'llab-quvvatlaydi.

5. Birlik, bilish, harakat tamoyili. Ushbu tamoyil iqtisodiyotni bilishni shaxs ijtimoiy hayotining tarkibiy qismi sifatida idrok etishni nazarda tutadi.

Keltirilgan tamoyillar yordamida «SWOT tahlil», «Assesment», «Web-kvest loyiha», «BBB»,

«Insert», «Konseptual jadval», «Nima uchun», «Aqliy hujum», «Klaster», «SCORE», «Venn diagrammasi» kabi ta’lim metodlarini qo’llash asosida tashkil etilgan o‘quv mashg‘ulotlar va talabalarning mustaqil ta’limi, ularning iqtisodiyot fanlarini bilishga oid motivatsiyasini oshirishga, kreativ fikrlashini rivojlantirishga erishish imkoniyatini oshiradi. [14]

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, talabalarning iqtisodiy ko‘nikmalarini rivojlantirishda “SWOT tahlil”, “Assesment”, “Web-kvest Loyiha”, “BBB”, “Insert”, “Konseptual jadval”, “Nima uchun”, “Aqliy hujum”, “Klaster”, “SCORE”, “Venn diagrammasi” kabi ta’lim texnologiyalaridan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Mazkur zamонавиу та’lim texnologiyalari talabalarning iqtisodiyot fanlarini o‘rganishdagi muammolarni mustaqil ravishda hal etishga qaratilganligi bilan samaralidir. Shuning uchun talabalarning iqtisodiy ko‘nikmalarini rivojlantirishda tavsiya etilayotgan ta’lim texnologiyalaridan foydalanishning yangicha yondashuvlarini takomillashtirishga harakat qildik.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Kadirova M.M. Practical effectiveness of modern educational technologies in developing students’ economic skills // Journal of northeastern university. 2022. – Volume 25, Issue 04. ISSN:1005-3026 <https://dbdxxb.cn/> – P. 2482-2490. (Scopus).
2. Фалевич Л.Н. Формирование экономической компетентности учащихся профессиональных училищ в современных условиях Автореф. дисс. канд. пед. наук. – Санкт-Петербург, 2005. – 24 с.
3. Назарова О.Г. Формирование экономической компетентности у учащихся профессионального лицея в учебном процессе. Автореф. дисс. канд. пед. наук. – Брянск, 2008.
4. Анатская Л.Н. Современные технологии в преподавании экономики// Педагогическая наука и практика. – 2012. – №3. – С. 81-84.
5. Крепс Т.В. Применение современных образовательных технологий при преподавании экономических дисциплин // Научный вестник Южного института менеджмента. 2018. – №4. – С. 124-13.
6. Казакова А.Ф. Формирование профессиональной грамотности студентов экономических специальностей в системе среднего профессионального образования: диссертация на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – Волгоград, 2014. – 202 с.
7. Морозова Г.М. Формирование экономической компетентности у студентов экономических специальностей вуза. Автореф. дисс. канд. пед. наук. – Челябинск, 2012. – 26 с.
8. Белянина Э.И. Технологический подход к развитию математической компетентности студентов экономических специальностей. Автореф. дис. канд. пед. наук. – Омск, 2007. – 23 с.
9. Бородай С.А. Формирование коммуникативных умений и навыков у студентов экономических специальностей. Автореф. дис. канд. пед. наук. – Чебоксары, 2004. – 24 с.
10. Овакимян Е.Э. Развитие экономической компетентности студентов вуза. Автореф. дисс. канд. пед. наук. –Челябинск, 2010. – 26 с.
11. Пузиенко Ю.В. Формирование экономической компетентности студентов. Автореф. дисс. канд. пед. наук. – Оренбург, 2007. – 24 с.
12. Kadirova M.M. Potentials of quest technology in the development of students economic skills // Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities Pedagogical sciences. 2022, Vol.2, –№ 1.5, – P. 372-379. (13.00.00; № 7).
13. Kadirova M.M. Opportunities to use electronic resources in the development of economic skills of students in the independent educational process // Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities Pedagogical sciences. 2022, Vol.1, – № 1.5, – P. 529-534. (13.00.00; № 7).
14. Kadirova M. Talabalarda iqtisodiy ko‘nikmalarni takomillashtirishda ta’lim texnologiyalaridan foydalanish // O‘zbekiston milliy universitet xabarlari. – Toshkent, 2022. – № 5. – B. 100-103.